
BUVAYDADA “MAHALLADA DUV-DUV GAP” TADBIRI

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash hamda Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, erishilayotgan yutuqlarni xalqimizga yetkazish maqsadida Buvayda tumanidagi barcha mahallalarida “Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!” shiori ostida “Mahallada duv-duv gap” ma'naviy-ma'rifiy va madaniy-musiqiy tadbirlari davom etmoqda.

Bugun, “Nayman”, “Oqtepa”, “Urganji”, “O'rta Qo'ng'iroq”, MFY lar aholisi uchun “Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!” shiori ostida “Mahallada duv-duv gap” ma'naviy-ma'rifiy va madaniy-musiqiy tadbir o'tkazildi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar mamlakatimizda mahallalarga berilayotgan e'tibor, keyingi yillarda yangicha qiyofa kasb etayotgan maskanlarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, mazkur tadbirning mazmun-mohiyati haqida ta'kidlab o'tdilar.

2024-01-05 13:50:17